

TA'LIM SAMARADORLIGIDA AKT MUHIM OMILDIR

Aldashev Ilxomjon To'xtaboyevich

Farg'ona davlat universiteti Axborot texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi

To'xtaboyeva Ominaxon Ilxomjon qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan, axborot oqimlari kengayib borayotgan bu davrda ta'limda sinf–dars tizimini qayta ko'rib chiqish va unga ishlov berishga ehtiyoj tug'ilmoqda. Xususan, darslarda axborot-kommunikasiya vositalarini qo'llash va shu orqali ularning natijalarini kafolatlash lozimligi yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda.*

Kalit so'lar: *Kompyuter, psixologik aloqa, bolada refleksiya, pedagogik dasturiy vositalar, o'z-o'zini baholash.*

Ta'lim jarayonida AKT lar salbiy holatning yuzaga kelishiga sabab bo'lmasligi uchun tashkilotchisi va boshqaruvchisi hisoblangan o'qituvchi o'quvchilar jamoasi kishilardan tashkil topganligini unutmashligi har bir o'quvchi shaxsini e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. O'quvchilar bilan psixologik aloqaning qisqa muddatga bo'lsada yo'qolishi, og'ir oqibatlarini vujudga keltiradi. Jarayonning to'g'ri tashkil etilishi bevosida pedagogning vazifalarini aniqlab olish va bajarilishining ta'minlanishiga bog'liq.

Texnologiya – ishlov berish, holatni o'zgartirish san'ati, mahorati, malakasi va metodlar yig'indisill(V.M. Shepel).¹

Axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan o'qitishni tashkil etish doimiy to'liq nazoratni amalga oshirishga imkon beradi va bunda nafaqat o'zlashtirish natijalarini, balki jarayonning o'zini nazorat qilish mumkin bo'ladi. O'quvchi bajariladigan topshiriqlarning natijasini va yo'l qo'yilgan xatolarning sonini dastur bilan ishlash vaqtida va ish yakunlanishi bilan yakuniy natijani ko'radi. Qayta aloqani bunday qurish ma'lumotni o'zlashtirishning to'g'riligini ta'minlaydi, ta'lim oluvchiga u amalga oshiradigan faoliyatning har bir bosqichini anglashga imkon beradi, kichik maktab yoshidagi bolalarda shakllanganlik darajasi etarli bo'lmagan, uning o'z-o'zini nazorat qilishning maqsadga muvofiqligi va zarurligiga ishonchini hosil qiladi. Bolada refleksiya – o'z faoliyati usullari, hatti-harakatlari prinsiplarini anglash shakllanadi.

Sinxronlashtirilgan elektron ta'lim masofaviy ta'limdir, lekin u real vaqt rejimida o'rganishdir. Bu oddiy kundalik mashg'ulotlarga o'xshaydi, ammo farq shundaki, ishtirokchilar bir-biridan uzoqda. Ushbu ta'lim shaklining eng yorqin misollaridan biri bu veb-seminarlar sonining ortib borayotganidir. Hisobotlarni tashkil qilish uchun maxsus dasturlardan foydalaniladi.[2]

Kompyuter o'quvchilarning javoblari to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlab borishi mumkinligi sababli, o'qituvchi har bir o'quvchining materialni o'zlashtirishining barcha bosqichlarining nazoratini amalga oshirish imkoniga ega bo'ladi. Dasturning nafaqat xatoni, balki uning xususiyatini ham aniqlashi, o'quvchi duch keladigan qiyinchiliklarni yanada aniqroq belgilashga va eng erta bosqichlardan korreksion ishlarni yanada to'g'ri o'tkazishga imkon beradi. Qayta aloqaning bunday xususiyati o'qituvchiga ta'lim oluvchiga individual yondashuv bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishga, ta'lim oluvchilarning faoliyatlariga tuzatishlar kiritishga sharoit yaratadi. Bunda o'qituvchining yozma ishlarga sarflanadigan ko'pgina vaqti tejaladi.

An'anaviy o'qitish metodikasida barcha o'quvchilarning bilishga irod faolliklarini katta qiyinchilik bilan ta'minlashga erishiladi. Mavjud amaliyot natijasida butun sinf o'quvchilari uchun yagona pedagogik maqsadlar qo'yiladi va ular bir xil yo'llar bilan o'quv vaqtining bir xil hajmida erishiladi. Bunda xotira turi, idrok. tafakkur, diqqat, qobiliyatlar, tayyorgarlik darajasi, shaxs sifatlarining individual xususiyatlari doim ham inobatga olinmaydi. Natijada ko'pgina o'quvchilar kuchlari va imkoniyatlari to'liq ishga sola olmaydilar: ba'zilar material ularga tanish bo'lganligi yoki topshiriqlar juda sodda bo'lganligi uchun, boshqalari, ularga tushunarli bo'lmaganligi va ular qanchalik urinsalar ham belgilangan vaqtda o'quv topshirig'ini bajara olmasliklari, uchinchilari esa xayollari chalg'iganligi sababli fikrlash izchilligini yo'qotganliklari sababli. O'qituvchi o'rtacha o'quvchiga yo'naltirilganligi vaziyatida intellektual tengsizlik yana ham murakkablashadi, zaif o'zlashtiruvchi o'quvchilarning ongida noto'liqlik hissiyoti shakllanadi, kuchlilar o'z qobiliyatlarini to'liq maromda ishga solish imkoniga ega bo'lmaydilar.

Sinf-dars tizimi sharoitlarida ta'limiy dasturlardan foydalanishda qiyinchiliklar darajasining turli yo'nalishlari bo'yicha bosqichma-bosqich ilgarilash hisobiga muayyan fandan ma'lumotlilik va qobiliyatlilik darajasi bilan ajralib turadigan o'quvchilarning tabaqalashtirilgan ishlarini tashkil etish mumkin bo'ladi. Ta'limiy dasturlar doimiy qayta aloqa evaziga zarur bo'lganda o'quv materialining ixtiyoriy qismiga qaytib har bir o'quvchiga o'z bilimlarini tuzatishga yordam beradi.

Shunga ko'ra, pedagogik dasturiy vositalar an'anaviy sinf-dars tizimini buzmasdan o'ganiladigan material bo'yicha individual ilgarilash uchun sharoitlar yaratadi.

Ko'p sonli tajriba-sinovlar ma'lumotlariga ko'ra boshlang'ich ta'lim o'quv jarayonida kompyuterlardan foydalanishda o'qitish motivatsiyasining oshishi kuzatiladi. Jumladan, o'quvchilarning kompyuter dasturlari bilan qo'llab-quvvatlanadigan fanga qiziqishlarini ahamiyatli oshirish kuzatilgan. Agar 6 yoshli bolalarda yangilik, o'yin motivi yorqin ifodalangan bo'lsa, unda kattaroq yoshdagi o'quvchilar kompyuterni darsga kiritish ta'lim olishning intensivligini oshirishini tushunadilar: yozish operatsiyalarini bajarish zarurati yo'qoladi, zaruriy mashq

qilish hajmini oshirish imkoni paydo bo'ladi, diqqat topshiriqning mohiyatiga jamlanadi.

Auditoriya diqqatini jalb etish va o'rganilayotgan mavzuga qiziqishni saqlab qolish uchun maxsus uslublarni tanlab olish (o'xshatishlar, hodisalar, hazil, savollar va boshqalar) auditoriya ishlashi uchun topshiriqlarni (yakka, juftlikda yoki kichik guruhlarda) va ushbu ishlar natijalarini muhokama qilish uchun savollarni tayyorlash pedagogik refleksiya uchun savollar yoki topshiriq tayyorlash va shu kabilar. Ushbu ro'yxat albatta pedagogning imkoniyatlari va istagiga bog'liq bo'ladi. Ta'limning maqsadlari va ko'zlangan natijalari standartlar talablari va o'quv dasturini hisobga olib ifoda etiladi. Ular aniq, o'lchamli, erishish mumkin bo'lgan, haqiqiy va vaqt bilan chegaralangan bo'lishi kerak (SMART metodikasi).

Tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, o'quvchiga o'quv maqsadlariga erishishda muvaffaqiyat hissini boshdan kechirishga imkon beruvchi muhitni yaratish alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan kichik maktab yoshida bolada maktabga nisbatan muayyan munosabat, o'qish istagi yoki istamaslik holadi yuzaga keladi, bu davrda o'z-o'zini baholash katta o'zgaruvchanlikka ega bo'ladi.

Ta'lim rivojlanib, o'quvchilarning bilim qiziqishlari va qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.[3]

Ko'pgina bolalar uchun o'z-o'zini baholashning muhim mezonini o'zlashtirish, o'qituvchilar, sinfdoshlari, ota-onalari tomonidan o'quv faoliyatidagi ularning muvaffaqiyatlari yoki muvaffaqiyatsizliklarini har kunlik baholash hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:

1. R.A. Mavlonova, M. Arabova, G'. Salohiddinova. Pedagogik texnologiya. –T: —Fanlnashriyoti. 2008 yil., 16-bet.
2. I.Aldashev Современные информационные технологии в образовании - это новые возможности. "Экономика и социум" №6(73) 2020 www.iupr.ru
3. С. Т. Жабборова Проблема повышения интереса студентов к русскому языку в вузе. "Экономика и социум" №12 (79) 2020 www.iupr.ru